O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Po‘stloqli tuxumlar uchun UNECE standarti

(UNECE standard Eggs-in-shell-2017, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 18-avgustdagi 30/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart UNECE standard Eggs-in-shell-2017 “UNECE standard Eggs-in-shell” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #BQ4K8XQ57Y - 25.08.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mundarija

I. Kirish VI
A. Po‘stloqli tuxumlar uchun UNECE standarti.....VI
B. Qo‘llanish doirasi.....1
C. Standartda qo‘llanilgan ta’riflar.....1
II. Sifat talablari..... 3
A. Minimal talablar.……..3
B. Tasniflash….....3
C. A sinfi.....3
D.B sinfi.....4
III. Og‘irlik 5
IV. Qayta ishlash.....5
V. Ishlab chiqarish tarixi….....6
A. Kuzatuvchanlik.....6
B. Ishlab chiqarish tizimi.....6
C. Oziqlantirish tizimi.....7
VI. Ishlab chiqarishni tamg‘alash.....8
A. Tuxumlarni tamg‘alash.....8
B. Transport qadoqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.....8
C. Iste’molchi qadoqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.....9
VII. Ruxsat etilgan chetlanishlar 10
A. Sifat bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar.....10
B. Og‘irlik bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar.....10
C. Tamg‘alash bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar.....10
VIII. Qadoqlash, saqlash va tashishga doir talablar…….....10
IX. Muvofiqlikni baholash talablariga doir qoidalar…….....11
X. Xaridor talablari uchun UNECE kodi…….....11
A. Kodning ta’rifi….....11
B. Misol….....11

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Izoh

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) huzuridagi Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifat standartlari xalqaro savdoni yengillashtirishga, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, rentabellikni oshirishga hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. UNECE standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, importyorlar va eksportyorlar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ushbu standartlar yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxumlar hamda tuxum mahsulotlari kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi mazkur Ishchi guruh faoliyatida teng huquq asosida ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun quyidagi veb-saytga murojaat qilish mumkin: www.unece.org/trade/agr.

Po’stloqli tuxumlar bo‘yicha mazkur qayta ko‘rib chiqilgan standart ECE/CTCS/WP.7/2017/24 (ECE/CTCS/WP.7/2017/24/Rev.) hujjati asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u Ishchi guruhning 2017-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan yetmish uchinchi sessiyasida qabul qilingan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

MINNATDORCHILIK

UNECE mazkur standartni ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish jarayonida ishtirok etgan Go‘shtni standartlashtirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan seksiya delegatsiyalarining hissasini yuksak qadrlaydi.

Shuningdek, UNECE mazkur standartning qayta ko‘rib chiqilgan tahririni tayyorlagani uchun Amerika Qo‘shma Shtatlari delegatsiyasiga alohida minnatdorchilik bildiradi.

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

I. Kirish

A. Po‘stloqli tuxumlar uchun UNECE standarti

1. Po‘stloqli tuxumlar uchun UNECE standartining maqsadi xaridor va sotuvchi o‘rtasida foydalanish uchun yagona xalqaro atamalar tizimini tavsiya etish orqali savdoni yengil-lashtirishdan iborat. Ushbu atamalar tizimi xalqaro savdoda ayirboshlanadigan po‘stloqli tuxumlarni tavsiflaydi hamda axborot almashish va elektron savdoni amalga oshirish uchun kodlash tizimini belgilaydi.

2. Ushbu standart muntazam ravishda yangilanib boriladi. Shu munosabat bilan, qo‘shimcha bandlar kiritish zarur, mavjud bandlarda noaniqliklar bor yoki ayrim bandlar endi amalda qo‘llanilmaydi, deb hisoblaydigan tuxum ishlab chiqaruvchilar va savdo ishtirokchilariga UNECE kotibiyatiga murojaat qilish tavsiya etiladi. Zudlik bilan e’tibor qaratishni talab qiladigan o‘zgartishlar UNECE rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.: <http://www.unece.org/trade/agr/standards.htm>.

3. UNECE kodlash tizimiga (X-bob) muvofiq, tuxumlar uchun quyidagi kod qo‘llaniladi:

Tuxum turi (1-ma’lumot maydoni)	*UNECE kodi*
Po‘stloqli tuxumlar	75
Tuxum mahsulotlari	76

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

PO‘STLOQLI TUXUMLAR UCHUN UNECE STANDARTI

СТАНДАРТ ЕЭК ООН ДЛЯ ЯИЦ В СКОРЛУПЕ

UNECE STANDARD EGGS-IN-SHELL

Amalga kiritish sanasi: 01.09.2026-yil

B. Qo‘llanish doirasi

4. Mazkur standart po‘stloqli tuxumlarning sifatiga qo‘yiladigan tijorat talablari tavsiya etilgan; tuxum mahsulotlari va sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan tuxumlar ushbu standart doirasiga kirmaydi. Standart xaridorlarga xalqaro savdoda ayirboshlanadigan tuxumlarni tasniflash, qadoqlash, tamg’alash hamda ularga oid boshqa jihatlar bo‘yicha turli variantlarni taqdim etadi. Mamlakatlarga tuxumlar sifatini nazorat qilish tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

5. Mahsulotlarning ushbu standart talablariga muvofiqligini ta’minlash maqsadida, xaridorlar mustaqil va xolis uchinchi tomon xizmatlaridan foydalanishni tanlashlari mumkin.

6. Tuxumlarni xalqaro chegaralar orqali yetkazib berishda oziq-ovqat gigiyenasi va veterinariya nazoratiga oid qonunchilik talablariga rioya qilinishi lozim. Ushbu standart boshqa manbalarda ko‘zda tutilgan qoidalarni belgilashni maqsad qilmaydi: bunday qoidalar milliy yoki xalqaro qonunchilik yoxud import qiluvchi mamlakat talablariga havola etiladi.

7. Standart boshqa xalqaro shartnomalar, standartlar va amaliyot kodekslariga havolalarni o‘z ichiga oladi, ular hukumatlarga sifat va oziq-ovqat gigiyenasi qoidalariga rioya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishga qaratilgan. Sog‘liqni saqlash va gigiyena talablari bo‘yicha xalqaro tavsiyanoma sifatida Alimentarius Codexi komissiyasi standartlari, ko‘rsatmalari va amaliyot kodekslariga murojaat qilish lozim[1].

C. Standartda qo‘llaniladigan ta’riflar

8. Ushbu standart bevosita inson iste’moli uchun yaroqli bo‘lgan hamda oziq-ovqat va (yoki) nooziq-ovqat sanoatida foydalanishga mo‘ljallangan tovuqning po‘stloqli tuxumlariga nisbatan qo‘llaniladi.

9. Barcha tuxumlar oziq-ovqat xavfsizligi va nazoratiga oid amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq muntazam ravishda parvarish qilinadigan fermalarda tuxum qo‘yadigan tovuqlardan yoki nasldor tuxum qo‘yadigan tovuqlardan olinishi shart.

---

[1]Xususan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) huzuridagi Codex Alimentarius komissiyasining «Tuxum va tuxum mahsulotlari uchun gigiyenik amaliyot kodeksi» (CAC/RCP 15-1976), 1976 yilda qabul qilingan, 1978 yilda o‘zgartirishlar kiritilgan va 2007 yilda qayta ko‘rib chiqilgan hujjati.

Rasmiy nashr
STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

10. Tuxumlar singan, inkubatsiya qilingan yoki issiqlik bilan ishlov berilgan tuxumlardan tashqari, **Gallus domesticus** turiga mansub tovuqlar va ushbu turning duragaylaridan olingan, inson tomonidan bevosita iste’mol qilish yoki tuxum mahsulotlarini tayyorlash uchun yaroqli po‘stloqli tuxumlar.

11. Yangi tuxumlar saralashdan oldin yoki keyin yuvilmagan yoki tozalanmagan, saqlash maqsadida ishlov berilmagan hamda import qiluvchi mamlakatning milliy qonunchiligiga muvofiq sun’iy ravishda belgilangan haroratda saqlanuvchi binolar yoki inshootlarda sovutilmagan tuxumlardir. Yangi tuxumlar har kuni yig‘ib olinadi[2].

12. Sovutilgan tuxumlar - bu sun’iy ravishda saqlanadigan inshoatda sovutilgan tuxumlardir[3].

13. Saqlangan tuxumlar - sovutilgan yoki sovutilmagan holda, tarkibi atmosfera havosidan farq qiladigan gaz aralashmasida konservalangan tuxumlar yoki har qanday boshqa saqlash ishlovidan o‘tgan tuxumlar.

14. Texnik (iste’molga yaroqsiz) tuxumlar - bu inson iste’moli uchun mo‘ljallanmagan tuxum

15. Yengil ifloslangan tuxumlar - yuzaki ifloslanish tuxum po‘stlog‘ini umumiy yuzasi yig‘indisining 1/8 qismidan oshmagan yoki tuxum po‘stlog‘ini umumiy yuzasining 1/16 qismidan oshmagan tuxumlardir. Ikkala holatda ham po‘choqda qon izlari va axlat (ekskrement) bo‘lmasligi kerak.

16. Yorilgan tuxumlar - bu po‘stloqni oddiy ko‘zga ko‘rinadigan darajada shikastlangan, lekin ichki qobiq pardasi butun bo‘lgan tuxumlardir.

17. Singan tuxumlar - bu po‘stloqni yorilgan va qobiq pardasi shikastlangan, natijada ichi ochilib qolgan tuxumlardir.

18. Inkubatsiya qilingan tuxumlar - inkubatorga qo‘yilgan vaqtdan boshlab olingan tuxumlardir.

19. Begona jismlar – tuxum tarkibidagi ichki yoki tashqi manbadan kelib chiqqan organik yoxud noorganik moddalardir.

20. Tovar to‘pi - bir xil ishlab chiqarish joyida yoki bitta qadoqlash markazida joylashgan, bir kunda qo‘yilgan yoki bir xil minimal yaroqlilik muddati yoki qadoqlangan sanasiga ega bo‘lgan, bir xil turdagi idishlarga qadoqlangan, bir xil parvarish qilish tizimida ishlab chiqarilgan va bir xil sifat toifasiga mansub, birgalikda tashilgan hamda nazorat qilish uchun bir vaqtning o‘zida taqdim etilgan tuxumlar to‘pi.

21. Tuxum qo‘yilgan sana yoki davr - tuxum qo‘yilgan kun. Agar davr ko‘rsatilsa, u haftaning birinchi kunidan hisoblanadi.

22. Sotishning oxirgi sanasi - tuxumni yakuniy iste’molchiga sotish mumkin bo‘lgan eng so‘nggi sana.

23. Saqlash muddati (eng kam yaroqlilik muddati) - tuxum to‘g‘ri saqlanganida o‘ziga xos xususiyatlarini yo‘qotmaydigan sanadir.

24. Iste’molchi qadog‘i - tashish uchun mo‘ljallangan tashqi qadoqdan tashqari, A sinf tuxumlarini o‘z ichiga olgan qadoq.

25. Transport qadog‘i - tuxumlarni tashish va taqsimlash uchun foydalaniladigan transport idishi (qadog‘i).

26. Yakuniy iste’molchi - tuxumlarni oziq-ovqat sohasidagi tadbirkorlik faoliyati yoki ishlab chiqarish jarayonining bir qismi sifatida emas, balki shaxsiy iste’mol uchun xarid qiluvchi oxirgi iste’molchi.

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

27. Oziq-ovqat sanoati - inson iste’moli uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan har qanday korxona, ommaviy ovqatlantirish korxonalari bundan mustasno.

28. Nooziq-ovqat sanoati - inson iste’moli uchun mo‘ljallanmagan, tarkibida tuxum mavjud bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi har qanday korxona.

29. Ishlab chiqaruvchi kodi - bu ishlab chiqarish maydonchasining farqlovchi raqami.

30. Kuzatuvchanlik - bu tuxumlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatishning barcha bosqichlarida kuzatib borish va kuzatib borish qobiliyati.

II. Sifat talablari

A. Minimal talablar

31. Tuxum quyidagilarga yo‘l qo‘ymaydi:

- Ovoskop (yorug‘likda tekshirish) orqali qaralgan vaqtida shikastlangan (yorilgan yoki singan) bo‘lmasligi lozim; yorilgan tuxumlarga B sinf uchun ruxsat etiladi;
- B sinfidan tashqari, po‘stloq ifloslangan bo‘lmasligi kerak;
- Ovoskop paytida ko‘rinadigan begona moddalarni o‘z ichiga olmasligi kerak;
- Hidi (faqat B sinf sovutilgan tuxumlarda sovuq saqlashdan kelib chiqqan yengil hid bo‘lishi mumkin, B sinf saqlangan tuxumlarda esa saqlash usuli natijasida yengil hid bo‘lishi mumkin);
- Yuzasining namligi.

32. Quyidagi bo‘limlarda iste’mol uchun mo‘ljallangan tuxumlarni xarid qiluvchi tomonidan belgilanishi mumkin bo‘lgan talablar, shuningdek, qo‘llaniladigan UNECE kodlari keltirilgan.

33. Kodda nazarda tutilmagan qo‘shimcha talablar (masalan, 9-kod «boshqa» qo‘llanilganda) yoki mahsulot va qadoq tavsifiga qo‘shimcha aniqlik kirituvchi talablar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi hamda tegishli tarzda hujjatlashtirilishi kerak.

B. Tasniflash

34. Tuxumlar ikki sinfga bo‘linadi:

- A sinf yoki “yangi” tuxumlar - inson tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’mol qilish va oziq-ovqat yoki nooziq-ovqat sanoatida foydalanish uchun mo‘ljallangan.
- B sinf tuxumlar oziq-ovqat yoki nooziq-ovqat sanoatida foydalanish uchun mo‘ljallangan.

C. A sinf

35. A sinf ikki sifat toifasiga bo‘linadi.

A sinf, O‘ta yangi tuxumlar. Ushbu toifadagi mahsulotlar yuqori sifatli, saralangan, tamg‘alangan va qadoqlangan bo‘lishi, hamda qo‘yilgandan keyin 4 kun ichida quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- Po‘stloq va qobiq pardasi - normal shakl, toza va shikastlanmagan;
- Havo bo‘shlig‘i - qadoqlash vaqtida balandligi 4 mm dan oshmasligi, harakatsiz bo‘lishi;
- Sarig‘i - ovoskopda faqat soya ko‘rinishida ko‘rinishi, aniq chegarasi bo‘lmasligi, tuxum aylantirilganda biroz harakatlanishi va yana markaziy holatga qaytishi;
- Oq qismi - tiniq, toza va shaffof;

STANDARTLAR INSTITUTI #BQ4KBXQ67Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- Murtak - rivojlanishi sezilmasligi;
- Sotish muddati - tuxum qo‘yilgan kundan keyin 9 kundan oshmasligi.

A sinf, I toifa. Ushbu toifadagi mahsulotlar yuqori sifatli, saralangan, tamg‘alangan va qadoqlangan bo‘lishi, hamda qo‘yilgandan keyin 10 kun ichida quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- Po‘stloq va qobiq pardasi - normal shakl, toza va shikastlanmagan;
- Havo bo‘shlig‘i - balandligi 6 mm dan oshmasligi, harakatsiz yoki faqat yengil harakatlanadigan bo‘lishi;
- Sarig‘i - ovoskopda faqat soya ko‘rinishida ko‘rinishi, aniq chegarasi bo‘lmasligi, tuxum aylantirilganda biroz harakatlanishi va yana markaziy holatga qaytishi;
- Oq qismi - tiniq, toza va shaffof;
- Murtak - rivojlanishi sezilmasligi;
- Sotish muddati - import qiluvchi mamlakat qonunchiligi bilan belgilanadi;
- Yaroqlilik muddati – import qiluvchi mamlakat qonunchiligi bilan belgilanadi.

36. A sinf tuxumlari doimiy past harorat sharoitida saqlanishi va tashilishi kerak hamda yakuniy iste’molchiga sotilishidan oldin sun’iy ravishda sovutiladigan inshoatarda sovutilmasligi lozim. Saqlash va tashish shartlari import qiluvchi mamlakat qonunchiligi talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

37. A sinf tuxumlari saqlanmaydi; ular po‘stloq va qobiq pardasiga zarar yetkazmaslik maqsadida yuvilmaydi va quruq tozalanmaydi.

38. Yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlarini yo‘qotgan A sinf tuxumlari B sinfga tushirilishi mumkin.

D. B sinf

39. B sinf tuxumlari — A sinf talablariga javob bermaydigan tuxumlardir. B sinf tuxumlari quyidagi xususiyatlarga ega:

- Po‘stloq - me’yoriy shaklda, shikastlanmagan, yengil ifloslangan bo‘lishi va biroz deformatsiyalarga ega bo‘lishi mumkin. Po‘stloqda qon halqalari bo‘lmasligi, tuxum ichi esa iflos bo‘lmasligi kerak. Agar tegishli milliy talablar mavjud bo‘lsa va xaridor hamda sotuvchi o‘rtasida kelishuv bo‘lsa, iflos tuxumlar sifatga ta’sir qilmaydigan maxsus usullar bilan yuvilishi va sanitar ishlov berilishi mumkin;
- Havo bo‘shlig‘i - balandligi 9 mm dan oshmasligi; tuxum uzunligining yarmigacha bo‘lgan harakatlanuvchi havo bo‘shlig‘iga ruxsat etiladi;
- Sarig‘i - ovoskopda ko‘rinadi, biroz yassilangan va harakatchan;
- Oq qismi - yarim shaffof;
- Murtak - rivojlanishi sezilmasligi.

40. B sinfga mansub yorilgan tuxumlar qayta ishlash korxonasiga yetkazib berilgan kundan boshlab bir kun ichida oziq-ovqat va nooziq-ovqat sanoati maqsadlarida ishlatilishi mumkin hamda eksport qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq sovutilgan holda saqlanishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

41. Sifat toifasi kodi quyidagicha:

Sifat kodi (ma’lumotlar maydoni 3)	*Sinf/Toifa*	*Tavsif*
0	Ko‘rsatilmagan	
1	A sinfi, o‘ta yangi	Inson tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’moli uchun, oziq-ovqat yoki nooziq-ovqat sanoati uchun yuqori sifatli mahsulot
2	A sinfi, I toifa	Inson tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’moli uchun, oziq-ovqat yoki nooziq-ovqat sanoati uchun yaxshi sifatli mahsulot
3	B sinfi	Oziq-ovqat yoki nooziq-ovqat sanoatida foydalanish uchun mahsulot
4-8	Foydalanilmaydgan kodlar	
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa sifat darajasi yoki tizimi

42. Sifat darajasi import qiluvchi mamlakat qonunchiligi talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Agar bunday qonunchilik mavjud bo‘lmasa, sifat darajasini belgilash xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi lozim.

III. Vazn.

43. A sinf tuxumlari quyida ko‘rsatilganidek, vazniga ko‘ra XL, L, M yoki S toifalarga ajratiladi.

43a. Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan holda boshqa vazn toifalaridan ham foydalanish mumkin va ular tegishli ravishda belgilab qo‘yiladi.

Vazn kodi (4 ma’lumotlar mayoni)	*Toifa*	Tavsif		
		Tuxumning vazni, g	*100 ta tuxumning minimal vazni, kg*	*360 ta tuxumning minimal vazni, kg*
0	Ko‘rsatilmagan			
1	XL - Juda yirik	≥ 73	7.4	26.64
2	L - Yirik	≥ 63 va < 73	6.4	23.04
3	M - O‘rta	≥ 53 va< 63	5.4	19.44
4	S - Kichik	dan kam 53	Minimal cheklov belgilanmagan	Minimal cheklov belgilanmagan
5-9	Foydalanilmaydi			

44. B sinf tuxumlari vazniga ko‘ra toifalarga ajratilishi shart emas.

IV. Ishlov berish

45. B sinf tuxumlari sun’iy ravishda sovitilishi yoki quyida keltirilgan toifalarga muvofiq turli usullar bilan saqlanishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ishlov berish kodi (5-ma’lumotlar maydoni)	*Toifa*	*Tavsif*
0	Ko‘rsatilmagan	
1	Ishlov berilmagan	Ishlov berilmagan
2	Sovitilgan	Sovitilgan mahsulot
3	Saqlash usuli	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan maxsus saqlash usuli
4-9	Foydalanilmaydigan kodlar	

V. Ishlab chiqarish tarixi

A. Kuzatuvchanlik

46. Харидорнинг маҳсулот ишлаб чиқариш тарихи бўйича талабларини қондириш учун ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida mahsulot yoki tovar to‘pini identifikatsiyalashni tekshirib bo‘ladigan usuliga asoslangan kuzatuvchanlik tizimi mavjud bo‘lishi kerak. Kuzatuvchanlik qaydlari bildirilgan da’volarni asoslay olishi kerak va muvofiqlikni tasdiqlash uchun qo‘llaniladigan tartib-taomillar IX bobdagi muvofiqlikni baholash talablariga oid qoidalarga muvofiq bo‘lishi lozim.

B. Ishlab chiqarish tizimi

47. Xaridor ishlab chiqarish tizimiga oid talablarni belgilashi mumkin.

Ishlab chiqarish tizimi kodi (6-ma’lumot maydoni)	*Toifa*[4]	*Tavsif*
0	Ko‘rsatilmagan.	
1	Erkin parvarish qilingan.	Erkin sharoitda parvarish qilinadigan tovuqlar
2	Parranaxonada parvarish qilingan.	Parranaxonalarda parvarish qilinadigan tovuqlar
3	Qafasda parvarish qilingan.	Qafaslarda parvarish qilinadigan tovuqlar
4	Organik[5]	Import qiluvchi mamlakatda amal qilayotgan organik qishloq xo‘jaligi qoidalariga muvofiq parvarish qilinadigan tovuqlar
5	Volyerlarda parvarish qilish tizimi	Import qiluvchi mamlakatda amal qilayotgan organik qishloq xo‘jaligi qoidalariga muvofiq parvarish qilinadigan tovuqlar
6-8	Foydalanilmaydigan kodlar.	
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa har qanday ishlab chiqarish tizimini tavsiflash uchun qo‘llanilishi mumkin

[4] Yorliqda ko‘rsatilgan ishlab chiqarish tizimi import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq bo‘lishi kerak.

[5] Organik ishlab chiqarish tizimlari o‘ziga xos oziqlantirish tizimlarini o‘z ichiga oladi. Shu sababli, “organik” varianti oziqlantirish tizimi qatorida takroran ko‘rsatilmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

C. Oziqlantirish tizimi

48. Xaridor oziqlantirish tizimini belgilashi mumkin. Bunda ushbu tizim import qiluvchi mamlakatda amal qilayotgan qoidalarga muvofiq bo‘lishi lozim. Agar bunday qoidalar mavjud bo‘lmasa, oziqlantirish tizimi xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishib olinadi.

Oziqlantirish tizimi kodi (7-ma’lumot maydoni).	*Tavsif*
00	Ko‘rsatilmagan
01	An’anaviy
02-09	Foydalanilmaydigan kodlar
10	Baliq unidan xoli
11	Baliq unidan hamda kelib chiqish manbasi hayvonotga taalluqli bo‘lgan ega ingrediyentlardan xoli
12	Baliq unidan, kelib chiqish manbasi hayvonotga taalluqli bo‘lgan ega ingrediyentlardan hamda o‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalardan xoli
13	Baliq unidan, kelib chiqish manbasi hayvonotga taalluqli bo‘lgan ingrediyentlardan, o‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalardan hamda (GMO) xoli
14	Baliq unidan hamda o‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalardan xoli
15	Baliq unidan, o‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalardan hamda (GMO) xoli
16	Baliq unidan hamda (GMO) xoli
17-29	Foydalanilmaydigan kodlar
30	kelib chiqish manbasi hayvonotga taalluqli bo‘lgan ingrediyentlardan xoli
31	kelib chiqish manbasi hayvonotga taalluqli bo‘lgan ingrediyentlardan hamda o‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalardan xoli.
32	kelib chiqish manbasi hayvonotga taalluqli bo‘lgan ingrediyentlardan hamda (GMO) xoli
33	kelib chiqish manbasi hayvonotga taalluqli bo‘lgan ingrediyentlardan, o‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalardan hamda (GMO) xoli
34-49	Foydalanilmaydigan kodlar
50	O‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalardan xoli
51	O‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalar va (GMO) xoli
52-59	Foydalanilmaydigan kodlar
60	(GMO) olingan mahsulotlardan xoli
61-98	Foydalanilmaydigan kodlar
99	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa har qanday oziqlantirish tizimini tavsiflash uchun qo‘llanilishi mumkin

FM xoli — Baliq unidan xoli.

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IAO xoli — kelib chiqish manbasi hayvonotga taalluqli bo‘lgan ingrediyentlardan xoli.
GP xoli — O‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalardan xoli.
O‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalarga veterinariya maqsadlaridan tashqari qo‘llaniladigan antibiotiklar kiradi. Bunday antibiotiklar uchun eksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakatlarning qoidalariga muvofiq qo‘llashni to‘xtatish muddati belgilangan bo‘lishi lozim.
GMO xoli — Genetik modifikatsiya qilingan organizmlardan olingan mahsulotlardan xoli.

VI. Mahsulot tamg‘asi

49. Mahsulot tamg‘asi kodekslari va standartlari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim[6].

A. Tuxumlarni tamg alash

50. Eksport qiluvchi mamlakat tomonidan tamg‘alash va kuzatuvchanlikka oid talablarni belgilashda import qiluvchi mamlakatning qoidalari qo‘llanilishi lozim.

51. Tuxumlardagi tamg‘a aniq, o‘chmaydigan va issiqlikka chidamli bo‘lishi lozim. Tamg‘alashda qo‘llaniladigan vositalar inson iste’moli uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarida ishlatilishi mumkin bo‘lgan bo‘yoq moddalariga oid import qiluvchi mamlakatning milliy qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi shart.

52. A sinf tuxumlari ishlab chiqarish joyidan chiqarilishidan oldin yoki birinchi qadoqlash stansiyasida tamg‘alanishi lozim.

53. A sinf tuxumlari uchun markirovka quyidagi ma’lumotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin:

- Sifat sinfi va toifasi;
- Vazn toifasi;
- Ishlab chiqaruvchi kodi,[7] u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ishlab chiqarish tizimi kodi (V bob, B bo‘limiga qarang), kelib chiqish mamlakatining ISO 3166 ikki harfli kodi[8]va ishlab chiqarish joyining milliy kodi.

54. A sinf tuxumlarini farqlovchi belgi kamida 5 mm balandlikdagi lotincha “A” harfidan iborat bo‘lishi mumkin. A sinfi tuxumlarining vazn toifasi vazn kategoriyalariga mos keluvchi, balandligi 2–3 mm bo‘lgan harflar bilan ko‘rsatilishi mumkin. U tegishli vazn oraliqlari bilan to‘ldirilishi ham mumkin.

55. Quyida “XL” vazn toifasiga ega bo‘lgan A sinfi tuxumining tamg‘asiga misol keltirilgan.

56.B sinf tuxumlari uchun tamg‘alash jo‘natish qadoqlarida amalga oshiriladi.

B. Transport qadoqlaridagi tamg‘aga

57. Import qiluvchi mamlakatlarning milliy talablariga rioya etgan holda, transport qadg‘ining tashqi yuzasida oson ko‘rinadigan va aniq o‘qiladigan shaklda tamg‘aga quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak. Ushbu tamg‘adagi ma’lumotlar tuxumlar darol saralash,

---

[6] Tuxum va tuxum mahsulotlari uchun gigiyenik amaliyot bo‘yicha FAO/WHO Qo‘shma Kodeks Alimentarius Komissiyasining kodeksi, CAC/RCP 15-1976, 1976 yilda qabul qilingan, 1978 yilda o‘zgartirishlar kiritilgan, 2007 yilda qayta ko‘rib chiqilgan. Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini belgilash bo‘yicha Kodeksning umumiy standarti, CODEX STAN 1-1985 (Rev. 1-1991).

[7] Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarda ishlab chiqaruvchi kodining mazmuni Komissiyaning 2002/4/EC direktivasi bilan tartibga solinadi.

[8] Ushbu standartda «kelib chiqish mamlakati» atamasi ishlab chiqarish, saralash va qadoqlash ishlari bir mamlakatning o‘zida amalga oshirilganligini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi.

STANDARTLAR AVTOMATLASHTIRISH MARKAZI STANDARTLARNI TARJIMA QILISH BO‘LIMI

qadoqlash yoki keyingi qayta ishlash uchun transport qadog‘idan olinguniga qadar saqlanishi

lozim:

- Ishlab chiqarilgan mamlakat, ishlab chiqaruvchining nomi va jismoniy manzili (masalan: ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi va agar Ishlab chiqarilgan mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi);
- Ishlab chiqaruvchi kodi va qadoqlash markazi kodi, agar import qiluvchi mamlakat talablarida nazarda tutilgan bo‘lsa;
- Tuxumlar soni, vazn toifasi va/yoki ularning vazni.;
- Tuxum qo‘yilgan sana yoki davr;
- Sovitilgan tuxumlar uchun “sovitilgan tuxumlar” degan yozuv;
- Saqlangan tuxumlar uchun “saqlangan tuxumlar” degan yozuv;
- Inson iste’moli uchun ham, oziq-ovqat sanoatida foydalanish uchun ham mo‘ljallanmagan tuxumlar uchun “sanoat tuxumlari” degan yozuv (yoki eksport qiluvchi mamlakat talablariga muvofiq shu ma’nodagi boshqa ifoda).

58. B sinf tuxumlari uchun, shu jumladan sovitilgan, saqlangan va sanoat maqsadlarida ishlatiladigan tuxumlar uchun, qadoqqa tuxumlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson iste’moli uchun yaroqli emasligini darhol aniq ko‘rsatib turadigan tasma yoki yorliq yopishtirilishi tavsiya etiladi.

C. Iste’mol qadoqlari haqidagi ma’lumotlar

59. Import qiluvchi mamlakatlarning milliy talablariga rioya etgan holda, iste’molchi qadoqlarining tashqi yuzasidagi tamg’ada oson ko‘rinadigan va aniq o‘qiladigan shaklda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

- Ishlab chiqarilgan mamlakat;
- Agar import qiluvchi mamlakat talab qilsa, ishlab chiqaruvchi kodi;
- Qadoqlash markazi kodi;
- Sifat toifasi; qadoqlar “A sinf” degan so‘zlar yoki “A” harfi bilan, yakka holda yoki “yangi” so‘zi bilan birgalikda belgilanishi kerak;
- Qadoqlangan tuxumlar soni;
- Vazn toifasi;
- Tuxum qo‘yilgan sana yoki davr;
- Sotish muddati;
- Saqlash muddati (minimal yaroqlilik) qadoqlash vaqtida belgilanishi shart;
- Parvarish (yetishtirish) usuli;
- Maxsus saqlash shartlari, masalan, iste’molchilarga tuxumlarni sotib olgandan keyin sovitilgan holda saqlash tavsiya etilishi haqidagi ko‘rsatma.

60. “Ekstra” yoki “Ekstra yangi” so‘zlari tuxum qo‘yilganidan keyingi to‘qqizinchi kunga qadar A sinf tuxumlari solingan qadoqlarda qo‘shimcha sifat belgisi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Qadoq “Ekstra” yoki “Ekstra yangi” so‘zlari yozilgan tasma bilan muhrlangan bo‘lishi kerak. Tuxum qo‘yilgan sanadan 9 kun o‘tgach, ushbu tasma olib tashlanishi kerak va qadoq ochilganda belgilarni to‘sib qo‘ymasligi yoki ularga zarar yetkazmasligi lozim. Muhrlangan qadoqning yaxlitligini saqlash uchun idishni yopishning qo‘shimcha usullari import qiluvchi tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

61. Ishlab chiqaruvchi kodining ma’nosi transport qadog‘ida va iste’molchi qadog‘ida yoki ularning ichida tushuntirilgan bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

VII. Cheklangan me’yorlar

A. Sifat bo‘yicha cheklangan me’yorlar

62. A sinf tuxumlari uchun qadoqlash bosqichida mahsulot to‘pida ushbu sinf talablariga javob bermaydigan tuxumlar miqdori 5 % dan, keyingi bosqichlarda esa 7 % dan ortiq bo‘lmasligiga yo‘l qo‘yiladi.“Ekstra” yoki “Ekstra yangi” tuxumlarida qadoqlash yoki import qilish vaqtida havo bo‘shlig‘i balandligi uchun hech qanday imtiyoz (ruxsat etilgan og‘ish) berilmaydi.

B. Vazn bo‘yicha cheklangan me’yorlar

63. Qadoqlash vaqtida mahsulot to‘pida uchun ko‘rsatilgan har bir vazn toifasi bo‘yicha, qadoqda belgilangan vazn toifasiga qo‘shni bo‘lgan vazn toifalaridan tuxumlarning 10 % dan ortig‘iga yo‘l qo‘yilmaydi, bunda pastki qo‘shni toifadan bo‘lgan tuxumlar miqdori 5 % dan oshmasligi shart.

C. Tamg‘alash bo‘yicha cheklangan me’yorlar

64. Mahsulot to‘pida tekshirish vaqtida belgisi o‘qilmaydigan tuxumlar miqdori 20 % dan ortiq bo‘lmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

VIII. Qadoqlash, saqlash va tashish bo‘yicha qoidalar

65. Qadoqlash shu jumladan iste’molchi qadoqlari, zarbaga chidamli materialdan ayyorlangan, quruq, toza va shikastlanmagan bo‘lishi kerak hamda tuxumlarni begona hidlardan himoya qilishi va turli sifat ko‘rsatkichlarining yomonlashishi xavfini kamaytirishi lozim. Ular bir martadan ortiq ishlatilmasligi kerak.

66. Yangi tuxumlar toza, quruq, begona hidlardan xoli binolarda, import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq belgilangan harorat va nisbiy namlik sharoitida saqlanishi kerak.

67. Sovitilgan tuxumlar sun’iy ravishda nazorat qilinadigan harorat saqlanadigan binolarda saqlanishi kerak. Qo‘yilgan kundan boshlab kamida 60 kunlik yaroqlilik muddati 70 foizlik nisbiy namlikka mos kelishi kerak. 90 kunlik yaroqlilik muddati 85-88 foiz nisbiy namlikka mos kelishi kerak..

68. Saqlangan tuxumlarning yaroqlilik (eng kam saqlash) muddati va saqlash shartlari xaridor hamda sotuvchi o‘rtasida kelishiladi.

69. Tashish vaqtida tuxumlar ifloslanishdan va begona hidlardan himoya qilinishi, shuningdek mexanik zarbalar, ob-havo sharoitlari va yorug‘lik ta’siridan yaxshi himoyalangan bo‘lishi kerak.

70. Tuxumlar tashish va saqlash jarayonida harorat o‘zgarishlaridan himoya qilinishi kerak.

71. Jo‘natishdan oldingi saqlash sharoitlari va tashishda qo‘llaniladigan uskunalar tuxumlarning fizik, ayniqsa issiqlik holatiga mos bo‘lishi hamda import qiluvchi mamlakat talablariga muvofiq kelishi kerak. Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro tashish to‘g‘risidagi va bunday tashishda qo‘llaniladigan maxsus uskunalar haqidagi UNECE kelishuvi qoidalariga e’tibor qaratiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IX. Muvofiqlikni baholash talablari bo‘yicha qoidalar

72. Xaridor belgilangan talablar bo‘yicha uchinchi tomon tomonidan muvofiqlikni baholashni talab qilishi mumkin. Bunday hollarda uchinchi tomon sertifikatlash organining nomi va qo‘llaniladigan baholash talablari xaridor va sotuvchi tomonidan kelishib olinishi kerak.

73. Uchinchi tomon bo‘lgan sertifikatlashtirish organi pudratchiga har bir kelishilgan element bo‘yicha baholash hamda kuzatuvlarini o‘z ichiga olgan yozma hisobotni taqdim etadi.

74. Baholash ko‘lami cheklangan bo‘lishi yoki ushbu standartda yoki boshqa belgilangan standartlarda ko‘rsatilgan talablarga muvofiqlikni baholash uchun keng qamrovli o‘tkazilishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash kodi (18-ma’lumot maydoni)	*Toifa*
0	Ko‘rsatilmagan
1	Belgilangan standart
2	Standartda belgilangan elementlar
3	Standartda belgilangan kombinatsiyalangan elementlar
4-8	Kodlar qo‘llanilmaydi
9	Boshqa

X. Xaridor talablari bo‘yicha tuxumga qo‘yiladigan UNECE kodi

A. Kodning ta’rifi

75. Xaridorlar talablari bo‘yicha iste’molga yaroqli tuxumlar uchun UNECE kodi yettita maydon va 20 ta raqamdan (ishlatilmagan 11 ta raqam) iborat bo‘lib, I-IX boblarda belgilangan kodlar kombinatsiyasidan iborat.

No.	*Nomi*	*Boblar*	*Qiymatlar oralig‘i*
1	Tuxum turlari	I	00-99
2	Sifat toifasi	II	0-9
3	Vazn toifasi	III	0-9
4	Qayta ishlash	IV	0-9
5	Ishlab chiqarish tizimi	V, bo‘lim B	0-9
6	Oziqlantirish tizimi	V, bo‘lim C	00-99
7	Muvofiqlikni baholash	IX	0-9

B. Misol

76. Quyidagi jadvalda qayta ishlanmagan, qafaslarda saqlanadigan va baliq uni yoki hayvonlardan olingan ingredientlar bilan oziqlantirilmaydigan tovuqlardan olingan A "Extra" sinfidagi L oziq-ovqat o‘lchamiga ega tuxumlarning tavsifi keltirilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

77. Ushbu mahsulot quyidagi UNECE tuxum kodiga ega: 75012131100000000001.

Ma’lumot maydoni	*Nomi*	*Talab*	*Qiymat*
1	Tuxum turlari	Iste’molbop tuxumlar	75
2	Foydalanilmagan maydon	-	0
3	Sifat toifasi	A sinf, o‘ta yangi	1
4	Vazn toifasi	Katta o‘lcham	2
5	Qayta ishlash	Qayta ishlanmagan	1
6	Ishlab chiqarish tizimi	Qafasda saqlanadigan	3
7	Oziqlantirish tizimi	FM va IAO erkin usulda saqlash	11
8	Foydalanilmagan maydon	-	0
9	Foydalanilmagan maydon	-	0
10	Foydalanilmagan maydon	-	0
11	Foydalanilmagan maydon	-	0
12	Foydalanilmagan maydon	-	0
13	Foydalanilmagan maydon	-	0
14	Foydalanilmagan maydon	-	0
15	Foydalanilmagan maydon	-	0
16	Foydalanilmagan maydon	-	0
17	Foydalanilmagan maydon	-	0
18	Muvofiqlikni baholash	Sifat va savdo tavsiflarining muvofiqligini baholash	1

STANDARTLAR INSTITUTI #BO4K8XQ57Y - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI